

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# No1

2026  
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 378 sahifa.  
2026-yil, yanvar

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afurovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                           |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ<br>ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....                        | 26  |
| <b>Каракулов Фарход Зайпудинович</b>                                                                                                      |     |
| TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH<br>USULLARI .....                                            | 33  |
| <b>Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna</b>                                                                                                  |     |
| QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI<br>TIZIMINI BAHOLASH .....                                      | 38  |
| <b>Achilov Ilmurad Nematovich</b>                                                                                                         |     |
| TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING<br>TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....                            | 45  |
| <b>Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li</b>                                                                                              |     |
| КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ<br>ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ .....                                                 | 51  |
| <b>Алиева Сусанна Сейрановна</b>                                                                                                          |     |
| ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ<br>ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ .....                      | 58  |
| <b>Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич</b>                                                                                                      |     |
| BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI .....                                                                       | 65  |
| <b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna</b>                                                                                                       |     |
| KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION<br>MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....                                 | 71  |
| <b>Ashurova Oltin Yuldashevna</b>                                                                                                         |     |
| FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA<br>MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....   | 78  |
| <b>Xusanova Gulsum Baxtiyorovna</b>                                                                                                       |     |
| QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI<br>SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI .....                                      | 84  |
| <b>Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova</b>                                                             |     |
| TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV<br>BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....               | 89  |
| <b>Atajanov Kamal Atavayevich</b>                                                                                                         |     |
| AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI .....                                                                 | 96  |
| <b>Pirmatov Nurali Berdiyarovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li</b>                                  |     |
| O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA<br>HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL .....                | 101 |
| <b>Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich</b>                                                                                                    |     |
| TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH:<br>RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR ..... | 108 |
| <b>Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li</b>                                                                                                     |     |
| TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS<br>XUSUSIYATLARI .....                                                     | 113 |
| <b>Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich</b>                                                                                                    |     |
| DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA<br>QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....                               | 120 |
| <b>Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li</b>                                                                                                |     |



|                                                                                                                                                                             |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....                                                                                                                    | 125 |
| <b>Ziynura sabirova</b>                                                                                                                                                     |     |
| RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI .....                                                                | 129 |
| <b>Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li</b>                                                                                                                                  |     |
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....         | 133 |
| <b>Кадилова Шарофат Амоновна</b>                                                                                                                                            |     |
| KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH .....                                                                                       | 139 |
| <b>Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich</b>                                                                                                       |     |
| O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI .....                                                                                                        | 143 |
| <b>Saidov Dilshodbek Razzakovich</b>                                                                                                                                        |     |
| QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI .....                                                                                  | 148 |
| <b>Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna</b>                                                                                                                                      |     |
| ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА .....                                      | 153 |
| <b>Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович</b>                                                                          |     |
| MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI .....                                               | 161 |
| <b>Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich</b>                                                                                                                                    |     |
| INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI .....                                                                                              | 165 |
| <b>Aliyev Hasan Rayimjonovich</b>                                                                                                                                           |     |
| ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN .....                                                                                                        | 171 |
| <b>Sharipov Kamil</b>                                                                                                                                                       |     |
| SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....                                                                                                                | 176 |
| <b>Kalonov Muxiddin Baxriddinovich</b>                                                                                                                                      |     |
| KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILIIY VA IQTISODIY MASALALARI .....                                                                                               | 187 |
| <b>Jumayev Samariddin Ziyodullaevich</b>                                                                                                                                    |     |
| YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI .....                                                                                   | 193 |
| <b>Isroilov Dilshodbek Rustamovich</b>                                                                                                                                      |     |
| TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI .....                                                      | 198 |
| <b>Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi</b>                                                                        |     |
| XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI .....                                                   | 203 |
| <b>Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich</b>                                                                                                                                   |     |
| XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI .....                                                                 | 208 |
| <b>Mayliyeva Sadoqat Safayozovna</b>                                                                                                                                        |     |
| IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH .....                                                            | 213 |
| <b>Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi</b>                                                                                                      |     |
| EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI .....                                                                                                               | 217 |
| <b>Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna</b> |     |



|                                                                                                                                                                  |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS .....                    | 222 |
| <b>Yovkochev Sherzod</b>                                                                                                                                         |     |
| ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI .....                                                                                      | 228 |
| <b>Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li</b>                                                                                                                     |     |
| MOSH DONINI YANCHIB Olishda qo'llaniladigan qurilmani loyihalash .....                                                                                           | 232 |
| <b>Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich</b>                                                                                                                            |     |
| DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR .....                                            | 239 |
| <b>Sarvar Saidov Xayrulloevich</b>                                                                                                                               |     |
| O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR .....  | 244 |
| <b>Tashov Mizrob Maxmudovich</b>                                                                                                                                 |     |
| DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI .....                                                              | 251 |
| <b>Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich</b>                                                                                                                 |     |
| ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА .....                                                      | 257 |
| <b>Айматова Фарида Хуразовна</b>                                                                                                                                 |     |
| ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI .....                                                                                          | 263 |
| <b>Salayeva Dilafro'z Aybekovna</b>                                                                                                                              |     |
| ДИАГНОСТИКА СИНХРОННОГО ДВИГАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ ИЗМЕРЕНИЯ ВНЕШНЕГО МАГНИТНОГО ПОЛЯ .....                                                                             | 267 |
| <b>Пирматов Нурали Бердярович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Мамуров Алмас Жумабой угли</b>                                                                      |     |
| XORIJIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI .....                           | 275 |
| <b>Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna</b>                                                                                                                         |     |
| СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В СДЕЛКАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ .....                                                                                    | 279 |
| <b>Ли Илларион Георгиевич</b>                                                                                                                                    |     |
| KO'P YADROLI CPU VA GPU ARXITEKTURALARIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI SONLI YECHISH UCHUN PARALLEL ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH ..... | 284 |
| <b>Ismailov Shixnazar Rashid o'g'li, Ubaydullayev Farrux Fathulla o'g'li, Odilov Asliddin Isoq o'g'li</b>                                                        |     |
| СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ — ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ .....                                                               | 291 |
| <b>Муталов Абдуазим</b>                                                                                                                                          |     |
| O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNING HUDUDIIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....                                                                  | 295 |
| <b>Ermamatov Shonazar Jumakulovich</b>                                                                                                                           |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI ISLOHOTLAR .....                                                                     | 302 |
| <b>Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich</b>                                                                                                                         |     |
| QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHIIYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....                                                              | 310 |
| <b>Tuyev Abdurahmon Yusubovich</b>                                                                                                                               |     |
| ТЕМИР YO'L STANSIYALARIDA STRELKALI O'TKAZGICH QURILMALARI BO'YICHA YO'L QO'YILGAN NOSOZLIKLAR VA ULARNING TAHLILI .....                                         | 315 |
| <b>Yunusova Gulshanoy Umarali qizi</b>                                                                                                                           |     |



|                                                                                                                                         |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY FONDlardan VA ISHLAB CHIQUARISH QUUVATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....                               | 320 |
| <b>Ulashev Xubbim Askarovich</b>                                                                                                        |     |
| TURLI YO'L SHAROITLARIDA TO'QNASHUV PAYTIDA TORMOZLASH VA BOSHQARUV PARAMETRLARI .....                                                  | 324 |
| <b>Uralbayev Anvar Ubaydullayevich</b>                                                                                                  |     |
| YANGI YARATILGAN MAHALLIY DURAGAY PILLALARNI YAKKA CHUVISH NATIJALARINING TAHLILI.....                                                  | 328 |
| <b>Sobirov Qo'ziboy Erkinovich</b>                                                                                                      |     |
| UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISHNI ZAMONAVIY YO'LLARI.....                                                                             | 332 |
| <b>Boboqulov S.B.</b>                                                                                                                   |     |
| TARJIMON DASTURLARIDA MULTITILLARNI TASNIFLASH: MAVJUD YONDOSHUVLAR VA MUAMMOLAR .....                                                  | 338 |
| <b>Maxmudjanova Sayyora Yashin qizi</b>                                                                                                 |     |
| KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ICHKI AXBOROT TIZIMLARINING MODERNIZATSIYASI ORQALI ISHLAB CHIQUARISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH ..... | 343 |
| <b>Yo'ldoshev Nodirbek Ne'matjon o'g'li</b>                                                                                             |     |
| NEFT VA GAZ TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....                                                  | 349 |
| <b>Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Quryozova Gulshan Akmal qizi</b>                                                                     |     |
| УСИЛЕНИЕ РОЛИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В ДОСТИЖЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ .....                        | 355 |
| <b>Гимранова О. Б.</b>                                                                                                                  |     |
| TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA OPERATSIYALARINING AHAMIYATI.....                                            | 361 |
| <b>Yuldashev Fozil Turapovich</b>                                                                                                       |     |
| NEFT-GAZ SANOATINING GLOBAL ENERGETIKA BOZORIDAGI STRATEGIK VA IQTISODIY ROLI.....                                                      | 368 |
| <b>Salomova Sarvinoz Salimovna</b>                                                                                                      |     |
| QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA UNDIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI .....                         | 373 |
| <b>Jumanazarov Alisher Toshtemir o'g'li</b>                                                                                             |     |



# QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA UNDIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

**Jumanazarov Alisher Toshtemir o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

E-mail [alisherjumanazarov086@gmail.com](mailto:alisherjumanazarov086@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va undirish jarayonida uchraydigan asosiy tashkiliy, huquqiy va institutsional jihatlar tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda QQS ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish zarurati, shuningdek, soliq krediti va qaytarish mexanizmlarining samaradorligini oshirish imkoniyatlari aniqlanadi. O'rganish natijasida ushbu yo'nalishdagi takomillashtirish choralari tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda soliq tushumlarining barqaror shakllanishiga xizmat qilishi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** qo'shilgan qiymat solig'i, soliq ma'muriyatchiligi, soliq krediti, soliqni undirish.

**Abstract.** This article analyzes the main organizational, legal, and institutional aspects of calculating and collecting value added tax using a systemic approach. The study highlights the need to further improve VAT administration and identifies opportunities to enhance the effectiveness of tax credit and refund mechanisms. The results substantiate that implementing improvement measures can support business activity and contribute to the stable formation of tax revenues.

**Keywords:** value added tax, tax administration, tax credit, tax collection.

**Аннотация.** В данной статье на основе системного подхода анализируются основные организационные, правовые и институциональные аспекты, проявляющиеся в процессе исчисления и взимания налога на добавленную стоимость. В ходе исследования выявляется необходимость дальнейшего совершенствования налогового администрирования НДС, а также возможности повышения эффективности механизмов налогового кредита и возврата налога. Обосновано, что реализация соответствующих мер способствует поддержке предпринимательской деятельности и формированию устойчивых налоговых поступлений.

**Ключевые слова:** налог на добавленную стоимость, налоговое администрирование, налоговый кредит, взимание налога.

## KIRISH

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) zamonaviy soliq tizimlarida davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan universal bilvosita soliq turlaridan biri hisoblanadi. Mazkur soliq turi ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonlarining barcha bosqichlarida yaratiladigan qo'shilgan qiymatga nisbatan undirilishi orqali iqtisodiy munosabatlarning keng doirasini qamrab oladi hamda keng soliq bazasiga egaligi bilan ajralib turadi. Xalqaro amaliyotda QQS fiskal samaradorligi yuqori va nisbatan neytral soliq sifatida e'tirof etilib, ko'plab mamlakatlarda davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim manbalaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, QQSning nazariy jihatdan samarali soliq mexanizmi ekanligi uni amaliyotda qo'llash jarayonida takomillashtirish talab etiladigan jihatlar mavjudligini inkor etmaydi. Aksincha, QQSni hisoblash, soliq krediti mexanizmlarini qo'llash, qaytarish (refund) jarayonlarini tashkil etish hamda undirish ustidan nazoratni amalga oshirishda yuzaga keladigan ma'muriy va institutsional murakkabliklar uning iqtisodiy samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu jihatdan, QQS nafaqat fiskal vosita, balki yuqori darajada takomillashtirilgan soliq ma'muriyatchiligini talab etuvchi muhim soliq instituti sifatida namoyon bo'ladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida QQSning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonlari, tadbirkorlik subyektlari sonining o'sishi, ishlab chiqarish va xizmatlar sohasida qo'shilgan qiymat zanjirlarining kengayishi QQSni hisoblash va undirish mexanizmlarini samarali tashkil etishni obyektiv zaruratga aylantirmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiyotda soya sektorining mavjudligi, naqd pul aylanmasining yuqori ulushi hamda soliq intizomini yanada mustahkamlash zarurati QQSni undirish jarayonida samaradorlikni oshirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar ko'rishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda soliq tizimini isloh qilish doirasida QQS mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. QQS stavkalarining optimallashtirilishi, elektron hisob-fakturalar tizimining joriy etilishi, soliq hisobotlarini raqamlashtirish hamda soliq nazoratining zamonaviy shakllarini qo'llash ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan muhim chora-tadbirlar hisoblanadi. Biroq amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, mazkur islohotlar bilan bir qatorda QQSni hisoblash va undirish jarayonida soliq to'lovchilar hamda soliq organlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, me'yorlarni bir xil talqin qilish hamda jarayonlarni soddalashtirish yo'nalishlarida qo'shimcha imkoniyatlar mavjud.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qo'shilgan qiymat solig'i davlat moliyasi hamda soliq siyosati sohasida eng ko'p tadqiq etilgan bilvosita soliqlardan biri hisoblanadi. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ushbu soliq turi, avvalo, davlat byudjeti daromadlarini barqaror shakllantirishga xizmat qiluvchi, keng qamrovli va samaradorligi yuqori moliyaviy instrument sifatida baholanadi [1]. Tadqiqotchilar qo'shilgan qiymat solig'ining asosiy ustun jihati sifatida ishlab chiqarish hamda xizmatlar ko'rsatish zanjirining har bir bosqichida faqat yangidan yaratilgan qiymatga soliq solinishini qayd etadilar.

Davlat moliyasi nazariyasiga oid klassik xorijiy tadqiqotlarda qo'shilgan qiymat solig'i iqtisodiy betaraflikka yaqin bo'lgan soliq shakli sifatida tavsiflanadi [1]. Ushbu yondashuvga ko'ra, soliq tizimi to'g'ri tashkil etilgan sharoitda ishlab chiqarish omillarining joylashuvi va investitsiya qarorlariga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Shu bilan birga, mualliflar QQSning hisob-kitob mexanizmlari nisbatan murakkab bo'lishi mumkinligini ham ta'kidlab, bu jarayonda tashkiliy va ma'muriy resurslardan samarali foydalanish muhim ekanini ko'rsatadilar.

Xorijiy empirik tadqiqotlarda qo'shilgan qiymat solig'ini undirish samaradorligi soliq boshqaruvi tizimining rivojlanganlik darajasi bilan bevosita bog'liq ekanini asoslab berilgan [2]. Mazkur ishlarda soliqni hisoblash va undirish jarayonida hujjatlashtirishni kuchaytirish, hisob hujjatlari ishonchligini ta'minlash hamda nazorat mexanizmlarini modernizatsiya qilish orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatlari yoritib beriladi. Tadqiqotchilar ushbu omillar soliq tushumlarining barqarorligiga hamda byudjet barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilishini qayd etadilar.

Bir qator xorijiy ilmiy maqolalarda qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha yo'qotishlarni baholash masalalari chuqur tahlil qilingan [3]. Ushbu tadqiqotlarda hisoblangan soliq va amalda undirilgan soliq o'rtasidagi tafovut soliq tizimida takomillashtirish talab etiladigan yo'nalishlarni aniqlashda muhim ko'rsatkich sifatida talqin etiladi. Mualliflarning fikricha, mazkur tafovutni kamaytirish soliq intizomini mustahkamlash, shaffof hisob-kitobni rivojlantirish hamda nazoratning samarali usullarini kengaytirish bilan bog'liqdir.

Ayrim xorijiy tadqiqotlar qo'shilgan qiymat solig'ining tadbirkorlik subyektlari moliyaviy holatiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan [4]. Ushbu ishlarda soliqni qaytarish jarayonlarini optimallashtirish korxonalarining aylanma mablag'laridan samarali foydalanishini qo'llab-quvvatlashi, natijada ishlab chiqarish hajmi va investitsiya faolligini rag'batlantirishi ilmiy asoslab berilgan. Shu sababli, mualliflar soliqni qaytarish mexanizmlarini soddalashtirish hamda tezkorlashtirish muhimligini ta'kidlaydilar.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda qo'shilgan qiymat solig'ining ijtimoiy ta'siri ham alohida tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqilgan [5]. Tadqiqotchilar ushbu soliqning regressivlik xususiyatlarini qayd etib, aholining past daromadli qatlamlari uchun soliq yukini muvozanatlashtirish zarurligini ko'rsatadilar. Shu munosabat bilan, ayrim mualliflar imtiyozli stavkalar hamda kompensatsiya mexanizmlarini joriy etish orqali ijtimoiy muvozanatni ta'minlash imkoniyatlarini asoslaydilar.

So'nggi yillarda xorijiy tadqiqotlarda qo'shilgan qiymat solig'ini raqamli asosda boshqarish masalalari muhim ilmiy yo'nalish sifatida shakllanmoqda [6]. Ushbu ishlarda elektron hisob hujjatlari, avtomatlashtirilgan soliq nazorati hamda real vaqt rejimidagi monitoring tizimlari soliq tushumlarining barqarorligini ta'minlash va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida baholanadi. Mualliflar raqamli yondashuvlar inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytirishi hamda soliq boshqaruvi samaradorligini oshirishini ta'kidlaydilar.

Xalqaro qiyosiy tadqiqotlarda turli mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari va soliq bazasining farqlari tahlil qilingan [7]. Ushbu tadqiqotlarda soliq siyosatining natijadorligi nafaqat stavkalar darajasi, balki soliq intizomi hamda soliq boshqaruvi sifatiga ham bevosita bog'liq ekanini ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Bu holat soliq siyosatini shakllantirishda kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi.



Rivojlanayotgan mamlakatlarga bag'ishlangan xorijiy ilmiy ishlarda qo'shilgan qiymat solig'ini joriy etish va isloh qilish jarayonlarining ko'p qirrali xususiyatlari yoritilgan [8]. Tadqiqotchilar soliq islohotlarining natijadorligi soliq idoralarining institutsional salohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik hamda soliq to'lovchilarning ongli munosabati bilan chambarchas bog'liq ekanini ta'kidlaydilar.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va undirishning umumiy samaradorligi, eng avvalo, soliq tizimining tashkiliy tuzilmasi qanchalik puxta shakllantirilganligi, huquqiy-me'yoriy asoslarning aniqligi hamda soliq ma'muriyatchiligi mexanizmlarining uzluksiz va izchil ishlash darajasi bilan belgilanadi. Mazkur soliq turining fiskal hamda tartibga soluvchi funksiyalarini to'liq amalga oshirishi soliq boshqaruvi tizimining institutsional imkoniyatlari, nazorat va hisob mexanizmlarining uyg'unligi, shuningdek, soliq to'lovchilar bilan o'zaro hamkorlik munosabatlarining sifati bilan bevosita bog'liqdir.

1-jadval. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash jarayonidagi asosiy muammolar

| Muammo yo'nalishi        | Muammoning mazmuni                                                                    | Iqtisodiy va institutsional oqibatlar                                                 |
|--------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|
| Hisob-kitob murakkabligi | QQSni aniqlashda ko'p bosqichli hujjatlashtirish va murakkab tartiblarning mavjudligi | Tadbirkorlik subyektlarida qo'shimcha vaqt va tashkiliy xarajatlarning yuzaga kelishi |
| Soliq krediti mexanizmi  | Kirim QQSni chegirish tartibining yetarli darajada aniq emasligi                      | Soliq nizolari ko'payishi va soliq organlari bilan ziddiyatlarning kuchayishi         |
| Qaytarish jarayonlari    | QQSni qaytarish mexanizmlarining sekin ishlashi                                       | Korxonalarining aylanma mablag'lari muzlab qolishi                                    |
| Huquqiy noaniqlik        | Ayrim me'yoriy qoidalarning turlicha talqin qilinishi                                 | Soliq xavfining ortishi va biznes muhitining beqarorlashuvi                           |

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, QQSni hisoblash jarayonida uchraydigan holatlar asosan tashkiliy va huquqiy xarakterga ega. Hisob-kitob tartiblarning nisbatan murakkabligi kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari uchun ayniqsa sezilarli bo'lib, ularning moliyaviy hamda ma'muriy yukini bilvosita oshirishi mumkin. Soliq krediti mexanizmidagi ayrim noaniqliklar esa soliq masalalari bo'yicha tushunmovchiliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'lib, soliq tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash zaruratini ko'rsatadi.

Shuningdek, QQSni qaytarish jarayonlarining ma'lum darajada cho'zilishi iqtisodiy faoliyatda resurslar aylanishiga ta'sir ko'rsatib, ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun likvidlikni boshqarish masalalarini dolzarblashtiradi. Mazkur holat investitsion faollikni qo'llab-quvvatlash nuqtayi nazaridan qaytarish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini anglatadi. Huquqiy me'yorlarning turlicha talqin qilinishi esa soliq tavakkalchiliklarini oshirishi mumkin bo'lib, tadbirkorlik faoliyatining barqarorligini ta'minlashda normativ aniqlikni kuchaytirish muhimligini ko'rsatadi.

2-jadval. Qo'shilgan qiymat solig'ini undirish jarayonidagi muammolar va ularning oqibatlari

| Muammo yo'nalishi    | Muammoning mazmuni                                                | Natijaviy ta'sir                               |
|----------------------|-------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------|
| Nazorat mexanizmlari | Soliq nazoratining asosan ma'muriy tekshiruvlarga tayanishi       | Resurslarning samarasiz taqsimlanishi          |
| Yashirin aylanmalar  | Hujjatsiz savdo va norasmiy bitimlarning mavjudligi               | Byudjet daromadlarining to'liq shakllanmasligi |
| Soliq intizomi       | Soliq to'lovchilarning ixtiyoriy bo'ysunish darajasining pastligi | Majburiy undirish choralarining kuchayishi     |
| Axborot tizimlari    | Soliq ma'lumotlarining yetarli darajada integratsiyalanmaganligi  | Nazorat samaradorligining cheklanishi          |

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Ikkinchi jadval QQSni undirish jarayonida uchraydigan ayrim jihatlar tizimli xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Nazorat mexanizmlarining asosan an'anaviy tekshiruvlarga tayanishi soliq organlari resurslaridan yanada samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini bildiradi. Bunday yondashuv ko'proq holatlarga javob berishga yo'naltirilgan bo'lib, profilaktik nazorat elementlarini kuchaytirish orqali jarayon samaradorligini oshirish mumkin.

Yashirin aylanmalar hamda norasmiy bitimlarning mavjudligi QQS tushumlarining barqaror shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Mazkur holat soliq bazasini kengaytirish hamda fiskal barqarorlikni

mustahkamlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini anglatadi. Soliq intizomini oshirish masalasi esa soliq to'lovchilar bilan soliq organlari o'rtasida ishonchga asoslangan hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirish muhimligini ko'rsatadi.

Axborot tizimlarining yetarli darajada uyg'unlashmaganligi QQSni undirish jarayonida zamonaviy tahliliy hamda oldini oluvchi nazorat usullarini kengroq qo'llash imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Shu bois, ma'lumotlar almashinuvi va raqamli integratsiyani kuchaytirish orqali soliq tizimining moslashuvchanligini oshirish hamda samaradorligini mustahkamlash imkoniyati yuzaga keladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va undirish jarayonlari ko'p qirrali bo'lib, ularning samaradorligi soliq tizimidagi huquqiy, tashkiliy hamda institutsional omillar bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur jarayonlarda takomillashtirishga ehtiyoj mavjudligi soliq tushumlarining yanada barqaror shakllanishi, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini qo'llab-quvvatlash hamda soliq tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, QQS tizimini takomillashtirish faqat soliq stavkalari yoki alohida tartiblarni o'zgartirish bilan cheklanmasdan, soliq ma'muriyatchiligini kompleks rivojlantirishni, huquqiy aniqlikni kuchaytirishni hamda soliq to'lovchilar bilan ishonchga asoslangan hamkorlik munosabatlarini shakllantirishni taqozo etadi. Mazkur yondashuv qo'shilgan qiymat solig'ining fiskal samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, barqaror va sog'lom soliq muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish, avvalo, soliq ma'muriyatchiligini institutsional jihatdan yanada takomillashtirishni talab etadi. Shu maqsadda QQSni hisoblash tartiblarini maksimal darajada soddalashtirish, huquqiy me'yorlarning aniq va bir xil talqin qilinishini ta'minlash hamda soliq krediti va qaytarish mexanizmlarini shaffof asosda takomillashtirish zarur. Ayniqsa, soliqni qaytarish jarayonlarida avtomatlashtirilgan va oldindan belgilangan tartiblarni joriy etish tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, QQSni undirish jarayonida an'anaviy ma'muriy nazoratdan profilaktik va xavfga asoslangan nazorat mexanizmlariga bosqichma-bosqich o'tish muhim hisoblanadi. Soliq to'lovchilarning xulq-atvorini tahlil qilishga asoslangan yondashuv, axborot tizimlarining integratsiyalashuvi hamda soliq to'lovchilar bilan ochiq muloqotni kuchaytirish soliq intizomini oshirishga hamda iqtisodiyotda shaffoflikni kengaytirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda soliq organlarining tashkiliy salohiyatini oshirish va inson omiliga bog'liq xatolarni kamaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Musgrave, R. A., Musgrave, P. B. (1989). *Public Finance in Theory and Practice*. New York: McGraw-Hill.
2. Ebrill, L., Keen, M., Bodin, J., Summers, V. (2001). *The Modern VAT*. Washington, DC: International Monetary Fund.
3. Keen, M., Smith, S. (2006). VAT fraud and evasion. *The Economic Journal*, 116(510), 529–553.
4. Tait, A. A. (1988). *Value Added Tax: International Practice and Problems*. Washington, DC: International Monetary Fund.
5. Bird, R. M., Gendron, P. P. (2007). *The VAT in Developing and Transitional Countries*. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Okten, R., Oskarsson, J. (2015). Digitalization and tax administration efficiency. *Journal of Financial Management*, 12(3), 45–63.
7. Schenk, A., Oldman, O. (2007). *Value Added Tax: A Comparative Approach*. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Jimenez, J. P., Segal, T. (2019). VAT reforms in developing countries. *World Economy*, 42(4), 1021–1043.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 1**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)